

SOHAVIY (MEDITSINA) TERMINLARNING OG'ZAKI TARJIMADA ISHLATILISHI

Kamolxonova Mohiraxon Tal'atxo'ja qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

“Sinxron tarjima” yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: kamolxonova61@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada meditsina sohasiga oid bo'lgan ba'zi so'zlar va ularning yasash usuli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, so'z yasashi orqali ma'noda bo'layotgan o'zgarishlar va ularning tarjima jarayoniga ta'siri aniqlanadi.

Kalit so'zlar. Meditsina, tana, kasallik, og'riq, suffiks.

Abstract

This article defines some words related to the sphere of medicine and how they are formed. In addition, the changes while forming these words and effect to the translation process will be looked thoroughly.

Key words. Medicine, body, illness, pain, suffix.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ibtidoiy davrda odamlarning rivojlanishidagi o'zgarishning juda sekin borishi tibbiyotning ham rivojlanishi uchun bo'lgan masofani ancha muddatga uzoqlashtirdi. Keyingi davrlarda esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taraqqiyoti bilan birgalikda tibbiyot ham rivojlanib bordi. Abu Ali ibn Sino “Odamning tanasi har vaqt kasallikdan qutulishga intiladi” deb aytgan. ¹

Tibbiyot ya'ni hozirgi zamonaviy til bilan aytadigan bo'lsak, meditsinaga oid barcha so'zlarning negizi lotin tiliga borib taqalgani bois, ularning tarjima jarayonida

¹ Asadulla Abdulla o'g'li. Tibbiyot tarixi: Tibbiyot 01 iv o'quv yurtlari talabalari, uchun darslik/ A-A Qodirov. — T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2005. C-6.

adekvat tarjima qilish yoki aksariyat hollarda asosiy negizni saqlagan holda so'z tuzilishiga biroz o'zgartirish kiritish bilan bir tildan boshqa tilga o'girish mumkin. Ingliz tilida suffikslar odatda so'zning oxiriga qo'shilib keladi. Tibbiyot sohasida esa suffikslar muolaja, kasallik va bemorning holatini tasvirlashda qo'llaniladi. Suffiks doimo so'zning oxirida keladi. So'zning o'zagi hech qachon yolg'iz kela olmaydi. Termin to'liq yakunlanishi uchun suffiks qo'shilgan bo'lishi lozim.

Qo'shimcha 'o' unlisi suffiks undosh bilan boshlangan holatlarda qo'shiladi.

²Quyidagi jadvalda suffikslarning bu qoidaga qanday moslashganligi ko'rib chiqiladi:

-plasty	Neuroplasty	Nevroplastika
-rrhaphy	Neurorrhaphy	Nevro operatsiya

Suffiksatsiya holatlari ot va sifat so'z turkumlari orasida boradi. Tibbiyot terminlari orasiga quyidagi suffikslarning qo'shilishi orqali so'zning o'zagi boshqa so'z turkumiga o'zgarib ketishi mumkin. ³ Quyida keltirilgan suffikslar tegishlilik ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalar hisoblanadi.

-a	fibra	tola
-e	perone	kichik boldir suyagi
-ic	txoracicus	Ko'krak qafasiga oid
-us	fibrosus	tolaga boy
-ar	clavicularis	o'mrovga oid
-al	coronalis	tojga oid

Funksional va patologik holatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan, "-algia" qo'shimchasi orqali so'z yasalganda biz beixtiyor bu so'z qandaydir kasallikni bildirib kelayotganini tushunamiz. Bu qo'shimcha "og'riq" ma'nosini beradi. **Gastralgia** (gas-TRAL-jee-ah), qorin og'rig'i so'zi bilan ham bog'liq bo'lib,

² <http://samples.jbpub.com/9780763779306/medical%20terminology.pdf>

³ M.N.Israilova. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. -T.: «Barkamol fayz mediya», 2016, 176 bet.

tananing qorin sohasidagi og'riqni ifodalaydi. Bunda gastr – qorin, -algia- og'riq demakdir. ⁴

-itis	gastritis	yallig'lanish
-dynia	gastrodynia	qorin og'rig'i
-malacia	arteriomalacia	yumshab ketish
-centesis	abdominocentesis	igna sanchish
-necrosis	arterionecrosis	chirish
-sclerosis	arteriosclerosis	zichlashish, qattiqlash
-stenosis	arteriostenosis	torayish

Medsina sohasida ishlatiladigan aksariyat qo'shimchalar kasallik nomlari bilan bog'lanib ketgani uchun ham uni tarjima qilishdan avval ma'lum bir so'z tibbiyot sohasiga tegishli ekanligini qo'shimchasiga qarab ajratib olish mumkin. Boshqa har qanday sohaning terminlaridan farqli ravishda bu so'zlarning negizi lotin tili bo'lgani uchun ham so'zlar prasidan ajratib olish yengilroq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, meditsina tarjimasi boshqa sohalardan o'zining aniq tarjimini talab qilishi bilan ajralib turadi. Tarjimondan bu sohaga nisbatan bilim, ko'nikma talab etiladi. Shuningdek, u terminlar bilan tanish bo'lishi, yaxshi ishlay olishi, so'z qo'shimchalaridagi o'xshashlik va farqlarni ajrata olishi, diqqatli bo'lishi va eng asosiysi kunlik tibbiyot yangiliklaridan boxabar bo'lishi talab etiladi. Xususan, grammatik jihatdan yaxshi ishlay olishi, ya'ni gapning tuzilishi, punktuatsion qoidalar va shu kabilardan o'rinli foydalana olishi ham tarjimon uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.N.Israilova – Lotin tili va tibbiy farmasevtik terminologiya asoslari Toshkent (2016)
2. Asadulla Qodirov- Tibbiyot tarixi (2005)
3. Ann Ehrlich and Carol L. Schroeder – Medical terminology for health profession (2013)
4. <http://samples.jbpub.com/9780763779306/medical%20terminology.pdf>

⁴ Ann Ehrlich and Carol L. Schroeder – Medical terminology for health profession (2013)